

DUNYO MIQYOSIDA URUSHLAR VA QUROLLI MOJAROLAR

Ozodkhon Tulanboeva

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: tarix davomida urushlar insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatgan muhim hodisalar bo'lib kelgan. Maqolada urushlarning sabablari, ularning oqibatlari, shuningdek, qurolli mojaro va urushlar o'rtaсидаги farqlar ko'rib chiqiladi. Maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yuz bergen muhim urushlar, jumladan, Sovuq urush davridagi mojarolar, Balkan urushlari, Yaqin Sharqdagi nizolar va zamonaliv terrorizm kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, urushlarning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, boshqaruvin tizimlariga ta'siri va tinchlik jarayonlari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy oqibatlar, iqtisodiy ta'sir, boshqaruvin tizimlari, urush strategiyalari, xalqaro munosabatlar.

Аннотация: на протяжении всей истории войны были значимыми событиями, оказывавшими влияние на социальную, экономическую и политическую жизнь человечества. В статье рассматриваются причины войн, их последствия и различия между вооружённым конфликтом и войной. В статье рассматриваются крупные войны, произошедшие со второй половины XX века, включая Холодную войну, Балканские войны, войну на Ближнем Востоке и современный терроризм. Также рассматриваются социально-экономические последствия войн, их влияние на системы государственного управления и мирные процессы.

Ключевые слова: социальные последствия, экономическое воздействие, системы государственного управления, военные стратегии, международные отношения.

Abstract: Throughout history, wars have been significant events that have affected the social, economic, and political life of mankind. The article examines the causes of wars, their consequences, and the differences between armed conflict and war. The article covers major wars that have occurred since the second half of the 20th century, including the Cold War, the Balkan Wars, the Middle East, and modern terrorism. It also examines the social and economic consequences of wars, their impact on governance systems, and peace processes.

Key words: social consequences, economic impact, governance systems, war strategies, international relations.

Dunyo bo'y lab ishtirokchilarning kamida biri davlat bo'lgan urushlar va mojarolar soni 2024 yilda yangi cho'qqiga chiqdi. Dunyoning 36 ta davlatida 61 ta mojaro sodir bo'ldi, bu Ikkinci jahon urushi tugaganidan keyingi har bir yildagidan ko'p. Bu haqda Oslodagi Tinchlik tadqiqotlari instituti (PRIO) olimlarining kecha, 11 iyun kuni chop etilgan tadqiqotida so'z boradi. Tadqiqotda qayd etilishicha, so'nggi yillarda mojarolar soni ortib bormoqda. 2022 yilda 56 ta, 2023 yilda esa 59 ta mojaro sodir bo'lgan. O'tgan yili 61 davlatlararo mojarordan 11 tasi keng ko'lamli urushlar bo'lgan. "2024 yilda "ikki urush hukmronlik qildi". Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi 76 mingga yaqin, G'azodagi urush esa 26 ming kishining hayotiga zomin bo'lgan", deb yozadi hisobot mualliflari. Dunyo tarixida urushlar va qurolli mojarolar insoniyatning rivojlanishiga, ijtimoiy tuzilmalarga va xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Urushlar ko'pincha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablar natijasida yuzaga keladi va ularning oqibatlari uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Urushlarning sabablari murakkab va ko'p qirrali bo'lishi mumkin. Ular orasida.

- Siyosiy sabablar. Davlatlar o'rtaсидаги куч муносабатлари, hududiy talablar yoki ideologik qarama-qarshilik.
- Iqtisodiy manfaatlar. Resurslarga, savdo yo'llariga yoki iqtisodiy ustunlikka ega bo'lish uchun kurash.

- Ijtimoiy omillar. Etnik, diniy yoki madaniy kelib chiqishi turlicha bo'lgan guruhlar o'rtasidagi nizolar.

Dunyo miqyosida ko'plab urushlar tarixda muhim rol o'yagan. Misol uchun. Bu urushlar nafaqat millionlab insonlarning hayotini olib ketdi, balki global siyosatni va iqtisodiy tizimlarni tubdan o'zgartirdi. Sovuq urush davrida AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi ideologik qarama-qarshilik dunyo siyosatiga ta'sir ko'rsatdi, ko'plab qurolli mojarolarni keltirib chiqardi. Ushbu mintaqada davom etayotgan urushlar va qurolli mojarolar, jumladan, Iraq va Afg'onistondagi urushlar, global terrorizm va migratsiya muammolarini kuchaytirdi. Urushlarning oqibatlari keng ko'lamli bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi. Urushlar inson hayoti, oilalar va jamoalar uchun halokatli oqibatlarga olib keladi. Qochqinlar va ichki ko'chishlar yangi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Urushlar iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarishning pasayishi, infrastrukturaga zarar yetishi va iqtisodiy resurslarning isrof qilinishi bilan bog'liq. Urushlar ko'pincha davlat tuzilmalari va hukumatlarni o'zgartiradi, yangi rejimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Urushlardan so'ng tinchlikni tiklash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Tinchlik jarayonlari. Davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarni amalga oshirish orqali urushni tugatish. Urushdan zarar ko'rgan aholi uchun yordam ko'rsatish va qayta tiklash dasturlarini amalga oshirish. Xalqaro tashkilotlar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, tinchlikni saqlash operatsiyalarini amalga oshirish orqali barqarorlikni ta'minlashga harakat qiladilar. Dunyo miqyosida urushlar va qurolli mojarolar insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ularning sabablari va oqibatlarini tushunish, kelajakda tinchlikni saqlash va mojarolarni oldini olish uchun muhimdir. Tinchlik jarayonlari esa urushlardan keyingi qayta tiklashda asosiy rol o'ynaydi. Urushlarni oldini olish uchun xalqaro hamkorlik va diplomatiya zarurdir. PRIO o'zining "Mojarolar tendensiyalari: global sharh" hisobotida mojarolar qurbanlari soni 2023 va 2024 yillarda taxminan bir xil – 129 ming kishiga yaqin bo'lganini yozadi. Biroq zo'ravonlik darajasi so'nggi o'ttiz yillikdagi o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori edi. "Umuman olganda, 2024 yil 1989 yilda Sovuq urush tugaganidan beri qurolli mojarolar qurbanlari soni bo'yicha to'rtinchi yil

bo‘ldi”, deb yozadi PRIO. Hisobot mualliflari, shuningdek, hukumat urushayotgan tomonlardan biri bo‘lgan alohida davlatlar ichidagi mojarolarning kuchayishini xavotirli deb ataydi. Tadqiqotga ko‘ra, Afrika urushlardan eng ko‘p jabr ko‘rishda davom etmoqda, 28 ta davlat to‘qnashuvi qayd etilgan, bu o‘n yil avvalgidan deyarli ikki baravar ko‘p. Undan keyin 17 ta mojaro bilan Osiyo, 10 tasi bilan Yaqin Sharq, 3 tasi bilan Yevropa, 2 tasi bilan Amerikasi turadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, o‘tgan yil davomida nodavlat nizolar soni biroz qisqargan: 2023 yildagi 80 tadan 2025 yilda 74 tagacha. “Bugungi dunyo o‘n yil avvalgiga qaraganda ancha zo‘ravon va parchalanib ketgan. Global zo‘ravonlik kuchayib borayotgan sharoitda izolyatsiya qilish inson hayoti uchun uzoq muddatli oqibatlarga olib keladigan jiddiy xato bo‘ladi”, dedi institut direktori va yetakchi muallifi Siri Aas Rustad hisobotni taqdim etar ekan.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Dene, M. (2020, July 6). Rising Tides of Terrorism. Foreign Policy Research Institute.
2. Financial Times. (2024, November 29). Record Global Warming Risks Aggravating War and Violence. Financial Times.
3. Global muammolar va imkoniyatlar.
4. Greenhouse gases surged to record levels in 2023.